

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA


Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan .....	6
<b>Raekwon Chung</b> , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari .....	8
<b>Nodira Shotursunova</b> , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari .....	12
<b>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</b> , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
<b>Egamov Zoxid Baxtiyarovich</b> , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development .....	26
<b>Muratova Muzayana</b> , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобальной потепление земли.....	34
<b>Кучаров Аброр Сабиржанович</b> , профессор; <b>Динара Нурмамад кизи Ишманова</b> , доцент; <b>Тю Константин Геннадьевич</b> , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy .....	39
<b>Nargiza Samandarova Muxammadovna</b> , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
<b>Ikromov Sayidolim</b> , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
<b>Rasulova Nigora Yusupovna</b> , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati .....	58
<b>Jontemirova Iroda Ikrom qizi</b> , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni .....	61
<b>Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna</b> , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
<b>Raxmanov M. A.</b> , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
<b>Tukhtaeva Shakhnoza</b> , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
<b>Bauyeddinov Majit Janizaqovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli</b> , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash .....	79
<b>Berkinov Bozorboy</b> , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; <b>Qulmatova Sayyora Safarovna</b> , PhD; <b>Ruxsatova Rushana O'ktamovna</b> , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari .....	86
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
<b>G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich</b> , i. f. d., professor; <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b> , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
<b>Ortiqov Uyg'un Davlatovich</b> , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания .....	115
<b>Марданова Барно Асатуллоевна</b> , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan .....	119
<b>Aziz Zikriyoev</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
<b>Kambarova Sh. M.</b> i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
<b>Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna</b> , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari .....	139
<b>Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich</b> , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; <b>Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna</b> , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	147
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili .....	151
<b>Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich</b> , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli .....	158
<b>Xudayarova Maftuna Shavkatovna</b> , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi .....	164
<b>Karimova Shirin Zoxid qizi</b> , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash .....	168
<b>Shakirova Nigora Axralovna</b> , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida .....	172
<b>Raximbayev Akmal Azatboyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
<b>Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna</b> , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati .....	182
<b>Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
<b>Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
<b>Abduturapova Dildora Farxodjon qizi</b> , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili .....	205
<b>Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich</b> , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
<b>Tashmuxamedova Yayra</b> , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
<b>Rakhimova Gulnoza</b> , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
<b>Искендер Аккуралай Абдиуалиевна</b> , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
<b>Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna</b> , kafedra dotsenti; <b>Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi</b>	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	228
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi .....	233
<b>Рашидов Рахимжон Исандарович</b> , в.и.о доцента; <b>Якубова Шамшинур Шухратовна</b> , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni .....	240
<b>Nomozova Qumri Isoyevna</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
<b>Nazarov Qilich Xolmuradovich</b> , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni .....	255
<b>Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
<b>Do'sanov Doniyor</b> , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
<b>N. N. Ro'ziyev</b>	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
<b>Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
<b>Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD</b>	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish .....	288
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
<b>M. A. Saparova, talaba</b>	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
<b>Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent</b>	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development .....	304
<b>Vafoyeva Dilafruz, Teacher</b>	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari .....	311
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD</b>	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili .....	316
<b>Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant</b>	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari .....	323
<b>Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant</b>	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba .....	327
<b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant</b>	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov .....	334
<b>Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry</b>	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana .....	341
<b>Fattahova Munisa Abduxamitovna</b>	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri .....	349
<b>Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant</b>	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег .....	354
<b>Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)</b>	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
<b>Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher</b>	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
<b>Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti</b>	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
<b>D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent</b>	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
<b>Shodmonkulova Shahlo, PhD student</b>	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi .....	384
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
<b>Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi</b>	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy .....	398
<b>Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher</b>	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari .....	406
<b>Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)</b>	



# KREDIT MEXANIZMINI METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Gadoyev So'hrob Jumakulovich**

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Bank kreditlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarishni rivojlantirishga, balki mamlakat pul aylanmasini oshirish va tezlashtirishga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiyotning real sektorlarini banklar tomonidan kredit resurlari bilan ta'minlash va ehtiyojlarini doimiy qondirishda ma'lum muammolar mavjud.

Ushbu maqola kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish orqali yuqorida bayon etilgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha mualiflik xulosa va takliflari berilgan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, kredit, kreditlarning daromadliligi, kreditlardan foydalanish samaradorligi, kredit mexanizmi, kredit resurslari, resurs bazasi, kredit ta'minoti, kredit riski, sanoat korxonalarini kreditlash.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ КРЕДИТНОГО МЕХАНИЗМА

**Аннотация:** Банковские кредиты являются составной частью рыночной экономики, служащей не только развитию производства, но и увеличению и ускорению денежного обращения страны. Следует отметить, что на сегодняшний день существуют определенные проблемы в обеспечении банками реальных секторов экономики кредитными ресурсами и постоянном удовлетворении их потребностей.

В данной статье представлены авторские выводы и предложения по устранению вышеперечисленных проблем путем совершенствования методологических основ кредитного механизма.

**Ключевые слова:** коммерческий банк, кредит, рентабельность кредитов, эффективность использования кредитов, кредитный механизм, кредитные ресурсы, ресурсная база, кредитное предложение, кредитный риск, кредитование промышленных предприятий.

## IMPROVING THE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE CREDIT MECHANISM

**Abstract:** Bank loans are an integral part of the market economy, serving not only the development of production, but also to increase and accelerate the monetary circulation of the country. It should be noted that today there are certain problems in providing banks with real sectors of the economy with credit resources and constant satisfaction of their needs.

This article presents the author's conclusions and suggestions for eliminating the above problems by improving the methodological foundations of the credit mechanism.

**Key words:** commercial bank, credit, profitability of loans, efficiency of use of loans, credit mechanism, credit resources, resource base, credit supply, credit risk, lending to industrial enterprises.

## KIRISH

Tijorat banklarining iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirishdagi rolini oshirish, kredit riskini baholash, kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish, tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash, banklarining kreditlash faoliyatini innovatsiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmogda.

O'zbekiston Respublikasining bank tizmini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljalangan strategiyasida "kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, kredit portfelini va bank risklarini boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, moliyaviy risklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish" bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan [1]. Bu esa, o'z navbatida, kredit mexanizmining metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.



## ADABIYOTLAR SHARHI

S. Vayn o'z tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda, kreditlarning samaradorligini ta'minlashda kreditlar bo'yicha tashqil etiladigan zaxiralarning darajasini muhim o'rinn tutishini e'tirof etgan<sup>[2]</sup>.

V. M. Usoskinning fikriga ko'ra, talab qilib olinadigan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidiligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi<sup>[3]</sup>.

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, banklar mijozning pul oqimini tahlil qilish quyidagi dolzarb savollarga javob topish imkonini berishi kerak:

- mijozning sof foydasi uning uzoq muddatli qarzlarining joriy qismini to'lash uchun yetarlimi?
- kompaniya aynan qancha miqdorda pul mablag'lari oladi?
- kompaniya o'z operatsiyalarini qanday moliyalashtiradi?
- kompaniyaning joriy holatini rahbariyatning qaysi hatti-harakatlari yoki qaysi tashqi ta'sirlar belgilaydi<sup>[4]</sup>.

A. Omonov tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash masalasini ilmiy asosda tadqiq qilgan. Uning xulosasiga ko'ra, tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozit mablaglari salmogini oshirish va bankdan tashkari aylanmalarni zarur darajada kamaytirish maksadida muddatli va jamg'arma depozitlarga nisbatan Markaziy bankning majburiy zaxira talabini 0 foiz mikdorida joriy etish lozim<sup>[5]</sup>.

Sh. Abdullayevning xulosasiga ko'ra, kredit portfelini resurslarning manbalari bo'yicha deversifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ba'zi tijorat banklarining kredit portfelida markazlashgan kreditlar salmog'ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo'yicha banklarga yengilliklar berish, ba'zi hollarda ulardan olingan daromadni soliqdan ozod qilish kabi choralarни ko'rish maqsadga muvofiq bo'lar edi<sup>[6]</sup>.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirishda iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish, statistik tahlil usullaridan hamda muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa qilindi va takliflar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, respublikamizda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mavjudligi kuzatilmoxda. Ulardan asosiyari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. **Tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori ekanligi.**



**1-rasm:** Aksiyadorlik-tijorat "Asakabank"da 1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan daromad darjasasi va kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini, foizda<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Rasm muallif tomonidan AT "Asakabank"ning Balans hisobotlari va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatadiki, Asakabankda 1 so'mlik kreditning daromadlilik darajasi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan. Bu esa, bankning kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rindan, 2019–2021-yillarda Asakabankda kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi uning me'yoriy darajasidan yuqori bo'lgan. Bu esa, bankning kredit portfelini sifatini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobjiy holat hisoblanadi.


1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatadiki, Asakabankda 2019 va 2020-yillarda kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa, ushbu yillarda tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashganligi bilan izohlanadi.

Kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini oshishi tijorat banklarining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, bankning moliyaviy barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishida kreditlarning ta'minoti tarkibi muhim o'rinn tutadi.

Tahliillar ko'rsatdiki, 2017–2021-yillarda Asakabank kreditlarining ta'minoti tarkibida O'zbekiston Hukumatining kafolatlari, qo'zg'almas mulk, uchinchi shaxslarning kafilligi hamda asbob-uskunalar va transport vositalari nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Mazkur davrda Asakabank kreditlarining ta'minoti tarkibida aksiyalar, sug'urta polisi va boshqa ta'minot turlari nisbatan kichik salmoqni egallagan.

## 2. Tijorat banklarida berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan kreditlar miqdorining katta ekanligi.



**2-rasm:** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiylajmidagi muammoli kreditlarning salmog'i, foizda (har bir moliyaviy yilning 31-dekabr sanasiga)<sup>2</sup>

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rindan, muammoli kreditlarning respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiylajmidagi salmog'i 2019–2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, ammo, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1,6 foizli punktga pasaygan.

Banklar tomonidan muddati uzaytirilgan kreditlar qoldig'i 2022-yil 1-yanvar sanasiga 88,4 trln. so'mni tashkil etib, shundan 73,9 trln. so'mi (84 foiz) yuridik shaxslar va 14,5 trln. so'mi (16 foiz) jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu kreditlar qoldig'ining 12,8 foizi yoki 11 trln. so'mi muammoli kreditlarga aylangan bo'lsa, 13,1 foizi yoki 12 trln. so'mi 30 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan potensial muammoli (substandart) kreditlarga aylangan. 2021-yil yakunlari bo'yicha jami to'lov muddati uzaytirilgan kreditlar qoldig'i bank tizimi kredit portfelining 27 foizini (88 trln. so'mni) tashkil etib, ayrim banklarda bu ko'rsatkich o'rtachadan sezilarli yuqori shakllandi. Xususan, Xalq bankida 42 foiz, Turonbank va O'zsanoatqurilishbankda 41 foiz, Qishloq qurilish bankda va Asakabankda 38 foizni tashkil etmoqda<sup>3</sup>.

2 Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) asosida tuzilgan.

3 Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) asosida tuzilgan.



### 3. Tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi.

**1-jadval:** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibi, foizda<sup>4</sup>

Tarmoqlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Sanoat	39,8	35,7	36,9	36,0	32,5
Qishloq xo'jaligi	5,6	8,1	10,1	10,7	10,8
Qurilish	3,5	2,8	2,7	2,8	2,7
Savdo va umumiy xizmat	6,4	6,8	7,2	8,4	7,4
Transport va kommunikatsiya	12,5	11,1	9,6	8,8	7,6
Moddiy-tehnika ta'minoti	1,6	1,5	1,4	1,2	1,0
Uy-joy kommunal xo'jaligi	1,1	1,2	1,4	0,7	0,5
Jismoniy shaxslar	14,6	18,9	19,8	21,3	25,9
Boshqa sohalar	14,8	13,7	10,9	10,0	11,7
Kreditlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past. Ya'ni, kreditlarning tarmoq tarkibida 2018–2022-yillarda nisbatan eng yuqori salmoqni sanoat tarmog'iga berilgan kreditlar egalladi. Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida 2018–2022-yillarda salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni qishloq xo'jaligiga berilgan kreditlar egalladi (jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bundan mustasno). Bu esa, qishloq xo'jaligini mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri ekanligi va davlat tomonidan qishloq xo'jaligini riojlantirishga qaratilgan siyosatni olib borilayotganligi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida tahlil qilning davr mobaynida moddiy-tehnika ta'minotiga va uy-joy communal xo'jaligiga ajratilgan kreditlar juda kichik salmoqni egallagan.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali Asakabank kredit portfelining tarmoq tarkibiga baho beramiz.

**2-jadval:** AT "Asakabank" kredit portfelining tarmoq tarkibi, foizda<sup>5</sup>

Tarmoqlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Sanoat	71,9	62,8	68,2	70,6	67,2
Qishloq xo'jaligi	5,3	6,8	5,5	4,3	4,0
Transport va kommunikatsiya	0,6	1,2	1,9	1,8	1,8
Qurilish	7,1	1,2	1,2	1,3	1,0
Savdo va umumiy ovqatlanish	3,2	3,9	4,4	4,9	4,6
Moddiy-tehnika ta'minoti	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0
Uy-joy communal xo'jaligi	0,3	0,5	0,4	0,4	0,3
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	11,1	23,6	18,4	16,7	21,1
Jami	100	100	100	100	100

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2018–2022-yillarda Asakabankning kredit portfelida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning ulushi 60 foizdan yuqori bo'lgan. Bu esa, Asakabankda kredit portfelining diversifikatsiya darajasini juda past ekanligini ko'rsatadi. Chunki Respublika tijorat banklarining sanoat korxonalariga ajratilgan kreditlarning kredit portfelidagi ulushi 32% ni tashkil etishini hisobga olgan holda Asakabank kredit portfelidagi sanoat korxonalariga ajratilgan kreditlar respublika ko'rsatkichidan ikki barobar yuqori.

#### 4. Tijorat banklarida tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashayotganligi.

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillarning natijalari ko'rsatdiki, tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashayotganligi, zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalanish darajasining past ekanligi banklarning barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar o'tkazgan ilmiy tadqiqotlar tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa muammolarning mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu muammolardan dolzarblari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

4 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) asosida tuzilgan.

5 Jadval muallif tomonidan AT Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



- milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga va infliyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida korxonalarining xorijiy valyutalarda olgan kreditlarini to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari va mahsulotlar tannarxining oshib ketishi yuz berdi. Natijada, ularning to'lovga qobillik darajasi pasaydi<sup>6</sup>;
- respublikamiz tijorat banklarida aktivlar va majburiyatlar o'rtasida kuchli nomutanosiblikning mavjudligi, banklar faoliyatidagi transformatsiya riskining chuqurlashishiga olib keldi. O'z navbatida, transformatsiya riskining chuqurlashishi banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosining chuqurlashishiga olib keldi<sup>7</sup>;
- tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi respublikamiz tijorat banklarining likvidlilikiga va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa, tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishi kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdorini oshishiga olib keldi. O'z navbatida, kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining miqdorini oshishi bankning sof foydasi miqdorining kamayshiga olib keldi. Chunki, kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini summasi to'liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi<sup>8</sup>;
- respublikamizda tijorat banklari mijozlarning joriy hisobraqamlaridagi pul mablag'larini, ularning ruxsatsiz ishlatayotganligi banklarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Holbuki, mijozning joriy hisobraqamidagi pul mablag'larini, uning roziligidiz ishlatish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish prinsiplariga ziddir<sup>9</sup>.

## **5. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi.**

Dissertatsion tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, TIF Milliy banki va Asakabank tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning darjasasi 2017–2021-yillarda baqaror bo'lmagan. Bu esa, fikrimizcha, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- tijorat banklarining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarining o'sish sur'ati bilan ushbu kreditlardan olingen foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlashmaganligi;
- kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini darajasining nisbatan yuqori ekanligi;
- davlat dasturlari doirasida berilgan imtiyozli kreditlar miqdorining katta ekanligi.

Kredit mexanizmining zamonaviy holatini tavsflovchi muhim jihatlardan biri bo'lib, kreditlardan olingen foizli daromadlarning tijorat banki foizli daromadlarining umumiyligi salmog'i bilan kreditlarning tijorat banki brutto aktivlari hajmidagi salmog'i o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning muhimligi shundaki, birinchidan, kreditlar tijorat banklarining asosiy aktivlaridan biri hisoblanadi va shuning uchun kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i yuqoridir. Ikkinchidan, kreditlash tijorat bankining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi vp shu sababli, bank foizli daromadlarining umumiyligi hajmida kreditlardan olingen foizli daromadlar sezilarli darajada yuqori salmoqni egallashi kerak.

E'tirof etish joizki, xalqaro bank amaliyotida kreditlardan oigan foizli daromadlarning bank foizli daromadlarning umumiyligi hajmidagi salmog'i ko'rsatkichi va kreditlarning tijorat banki brutto aktivlarining umumiyligi hajmidagi salmog'i ko'rsatkichlarining umume'tirof etilgan me'yoriy darajasasi mavjud emas.

Iqtisodiy konyunkturaning yomonlashishini muammoli kreditlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ishlab chiqarilgan tovarlarni sotilmay qolishida namoyon bo'ladi. Tovarlarni sotilmasligi natijasida tovarlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar banklardan olgan kreditlarini qayta olmaydi. Bundan tashqari, tovarlarni ommaviy sotilmasligi natijasida kompaniyalar o'rtasida debitor qarzdorlik miqdori ko'payadi. Buning natijasida kompaniyalarda pul oqimi zaiflashib, pirovard natijada, bank tizimida muddati o'tgan kreditlar hajmi oshadi.

## **6. Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi.**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar miqdorining katta ekanligi hamda ularning aktivlari va majburiyatlar o'rtasida nomuvofiqlikning mavjudligi banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosining yuzaga kelishi va chuqurlashib ketishiga olib keldi.

- 6 Majidov J. K. Tijorat banklari aktivlar portfelini shakllantirishning sifatini oshirishning dolzarb masalalari//Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2017. – №1,-fevral;
- 7 Gadoyev S. J. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishni takomillashtirish.l. f.b.f.d. diss. avtoref. – 47 b.
- 8 Berdiyarov B. T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliliyi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. l. f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73 b.
- 9 Ismailov A. A. O'zbekiston Respublikasi pul tizimini mustahkamlashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. l. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 81 b.



Kredit riskini kamaytirish maqsadida karantin cheklvlari o'rnatilgan davrda (2020-yil mart-sentyabr oylari) moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan aholi va tadbirkorlik subyektlarining 26,6 trln. so'mlik kredit to'lovlarini muddatini 2020-yilning 1-oktyabriga qadar uzaytirish bo'yicha tijorat banklariga ko'rsatmalar berildi. Bunda tijorat banklariga aholi va tadbirkorlik subyektlarining kreditlarni qaytarish imkoniyatlarini har bir mijoz bilan birgalikda to'liq va puxta o'rganib chiqish asosida qarzdorning pul oqimi kreditning:

- asosiy qarzini to'lashga yetmagan taqdirda, kredit shartnomasining oxirgi muddatini mos davrga kechiktirish;
- asosiy qarz va foiz to'lovlarini to'lashga yetmagan taqdirda, kredit bo'yicha asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni to'lov muddati uzaytirilgan davrga mos ravishda uzaytirish bo'yicha tomonlarning kelishuviga ko'ra, kredit shartnomasiga o'zgartirish kiritish;
- to'lov muddati uzaytirilgan kreditlarning hisobini balansning "shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar hisobvaragi"ga o'tkazmaslikka, ushbu kreditlar tasnifini yomonroq toifaga o'zgartirmaslikka va ular bo'yicha qo'shimcha zaxira shakllantirmaslikka ruxsat berish;
- kreditlar bo'yicha kredit to'lovlarini muddati kechiktirib to'langanda jarima sanksiyalari (penya) qo'llamaslik hamda kredit qarzdorligini ta'minotga qaratmaslik yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi hamda zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Koronavirus pandemiyasi sababli moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning dasturlar doirasidagi 1,1 trln. so'mlik kreditlarning to'lov muddati 6 oyga (2020-yil 1oktyabrga qadar) uzaytirildi<sup>10</sup>. Bu esa, banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi.

## 7. Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi.

Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi sanoat korxonalarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladi. Bunda sharoitda, tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining past va barqaror darajsini ta'minlash sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**3-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi, foizda<sup>11</sup>**

Aktivlar tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Kassali aktivlar shu jumladan:	17,1	17,2	17,3	18,1	20,0
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	2,5	2,4	2,7	2,4	3,5
Markaziy bankdagi mablag'lar	5,3	5,4	5,1	7,1	6,6
Boshqa bankdagi mablag'lar-rezident	3,0	3,7	3,6	3,0	3,1
Boshqa bankdagi mablag'lar-norezident	6,3	5,7	5,9	5,6	6,8
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	1,1	1,2	2,6	4,4	5,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatları	0,9	0,2	0,4	0,3	0,3
Kreditlar	76,8	76,1	73,8	71,1	68,1
Asosiy vositalar	1,6	2,1	2,3	2,5	2,6
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	1,3	1,2	2,2	2,1	2,2
Boshqa aktivlar	1,2	2,0	1,4	1,5	1,1
Aktivlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog'i 2018–2022 yillarda nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa,, banklarning kreditlash imkoniyatini kengaytirishga to'sqinlik qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

- Tijorat banklari kreditlarining daromadlilik darajasining past ekanligi va kreditlardan ko'rildigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini yuqori bo'lgan.
- Tijorat banklarida berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan kreditlar miqdorining katta bo'lgan.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobot/www.cbu.uz.

<sup>11</sup> Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking rasmiy statistik ma'lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.



- Tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past.
- Tijorat banklarida tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashayotganligini ko'rishimiz mumkin.
- Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi kuzatishimiz mumkin.
- Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi ko'rishimiz mumkin.
- Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori bo'lgan.

Tadqiqot jarayonida kredit mexanizmining metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarining daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarining brutto kreditlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish orqali ularning kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish lozim.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, 2018–2022-yillarda respublikamiz tijorat banklarining aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan.

Fikrimizcha, banklarning kreditlar berish imkoniyatini daromad keltirmaydigan likvidli aktivlarining brutto kreditlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish uchun, birinchidan, yuqori likvidli aktiv sifatida Markaziy bank tomonidan tan olinadigan qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalar miqdorini ko'paytirish orqali daromad keltirmaydigan aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish kerak;; ikkinchidan, transaksion depozitlarning brutto depoziitlar hajmsidagshi salmog'ini pasaytirish yo'li bilan banklarning joriy likvidliliga nisbatan yuzaga kelayotgan bosimni kamaytirish va kreditlarning resurs ta'minoti miqdorini ko'paytirish lozim.

2. Muvozanatlashgan foiz stavkasini shakllantirish yo'li bilan kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtaqidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak.

Buning uchun, birinchidan, tijorat banklarida sof foizli spred koeffitsiyentining me'yoriy darajasini ta'minlash lozim; ikkinchidan, Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasining tijorat banklarining muddatli depozitlarga foiz to'lash imkoniyatiga nisbatan salbiy ta'siriga barham berish kerak; uchinchidan, ekspansionistik pul-kredit siyosati orqali kreditlarning foiz stavkalari barqarorligini ta'minlashga ko'maklashish zarur.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son li Farmoni. 2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida//Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2021-y., 06/21/6325/0972-son; 30.12.2021-y., 06/21/42/1224-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son; 27.04.2023-y., 06/23/62/0232-son.
2. Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 194 с.
3. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: Вазар-Ферро, 1994. – 320 с.
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 – 486.
5. Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I. f.d. ilm. dar. ol uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008.– 35 b.
6. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarning kredit portfelini diversifikasiyalash. I. f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 43 b.
7. Gadoyev S. J. Tijorat banklarida likvidlilik riskini boshqarishning dolzarb masalalari. // Moliya. – Toshkent, 2019. – № 4. 43 – 50 b.
8. Gadoyev S. J. Tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosi xususida. // Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2019. – № 3. 33 – 42 b.
9. Gadoyev S. J. Topikal issues of liquidity risk management at commercial banks//International Journal of Memejement, IT & Engineering. (ISSN: 2249–0558) Impact Factor: 7. 119, 2019. – Volume – 9, Issue – 9. – Pg. 73 – 77.
10. Gadoyev S. J. Monetar siyosat instrumentlaridan foydalanish amaliyotining nazariy va amaliy jihatlari. // Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2017. – №5. 31 – 39 b.
11. Gadoyev S. J. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar portfelining sifatini ta'minlash yo'llari. // Moliya. – Toshkent, 2021. – № 4. 57 – 64 b.
12. Gadoyev S. J. Tijorat banklarining likvidliliginu ta'minlashning dolzarb masalalari. // Moliya. – Toshkent, 2021. – № 6. 89 – 98 b.
13. Gadoyev S. J., Jumazoda A. Tijorat banklari mijozlarining kredit to'loviga layoqatliliginib baholashni takomillashtirish. // Logistika va iktisodiyot. Toshkent, 2022. – № 2. 58 – 65 b.
14. Gadoyev S. J., Jumazoda A. Improving credit efficiency assessment of commercial banks' customers. // Thematics journal of business management (ISSN 2277–3002) Impact Factor: 7.25, 2022. – Volume – 5, Issue – 1. Pg. 18 – 24.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.